

## XARID HUJJATI



**«TASDIQLAYMAN»**  
**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB**  
**Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b:**  
**B.Bobojonov**

«18» dekabr 2025 y.  
№ 178

**“Biznesni Rivojlantirish Banki” ATB uchun Pos terminallarini  
sotib olish bo'yicha**

**XARID HUJJATI**

Toshkent 2025 y.

## I. TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN QO‘LLANMA

### 1-BOB. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1. Mazkur xarid hujjati O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori hamda 2025-yil 19-maydagi 60/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi asosida ishlab chiqilgan va eng yaxshi takliflarni tanlashni (keyingi matnda – Tanlash) o‘tkazish tartibini belgilab beradi.

1.2. Tanlov o‘tkazish uchun asos: Bank kartalari tizimini qo‘llab-quvvatlash departamentining 19.11.2025-yildagi IF-4757-sonli bildirishnomasi.

Tanlash predmetining to‘liq nomi: **“Biznesni Rivojlantirish Banki” ATB uchun Pos terminallarni sotib olish.**

1.3. Tanlashning boshlang‘ich narxi: **7 172 000 000,00** (yetti milliard bir yuz yetmish ikki million) so‘m (QQS bilan birga).

<b>№</b>	<b>Pos terminallar nomi</b>	<b>Soni</b>	<b>1 dona Pos terminal narxi</b>	<b>Jami narxi</b>
<b>1</b>	Pos terminallar	2000	3 586 000,00	<b>7 172 000 000,00</b>

Bunda, soliq munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

Soliq qonun hujjatlari talablari o‘zgargan taqdirda, yuqorida ko‘rsatilgan normalarga nisbatan yangi talablar qo‘llaniladi.

QQS summasi xizmatlarning umumiy qiymatiga kiritiladi.

Moliyalashtirish manbasi – Buyurtmachining o‘z mablag‘lari.

1.4. To‘lov shartlari: Tomonlar o‘rtasida shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o‘n) bank ish kuni ichida shartnoma umumiy qiymatining 30 (o‘ttiz) foizi miqdorida oldindan to‘lov amalga oshiriladi. Qolgan 70 (yetmish) foiz miqdoridagi summa qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin 5 (besh) bank ish kuni ichida to‘lab beriladi.

1.5. Tijorat takliflari ochiq taqdim etilgan hamda boshlang‘ich narxdan yuqori narx taklif etgan ishtirokchilarning takliflari ko‘rib chiqilmaydi hamda tanlashdan chetlashtiriladi.

1.6. Tanlash mazkur xarid hujjatining 1.1.-bandida ko'rsatilgan me'yoriy hujjatlarga muvofiq shaklda o'tkaziladi.

1.7. Buyurtmachi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi). Buyurtmachi manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 18A- uy, tel.: 78 150-93-39.

1.8. Xarid komissiyasining ishchi organi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Korporativ xaridlar boshqarmasi. Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 18A- uy. Bog'lanish uchun shaxs: Boshqarma boshlig'i E.Mavlanov, tel.: 78-150-93-39. Ichki raqam – 869. A.Xusanboyev, tel.: 78-150-93-39. Ichki raqam – 362.

1.9. Elektron tanlashni o'tkazayotgan operatorning nomi va uning veb-saytiga xavola: O'zRTXB, [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz).

1.10. Xizmatni bajarish yetkazib berish muddati – oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kunida.

1.11. Kafolat muddati: 12 oy

1.12. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) tanlashda davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, ushbu xarid hujjati talablariga muvofiq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

1.13. “Konsorsium” shartnomasi asosida tanlashda ishtirok etish ta'qiqlanadi va tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarlar inobatga olinmaydi, ishtirokchi tanlovdan chetlashtiriladi.

## **2-BOB. TANLASH ISHTIROKCHILARIGA BO'LGAN TALABLAR**

2.1. Tanlash ishtirokchilariga 1-ilova “Tanlash ishtirokchilari va takliflarni baholash mezonlari”da keltirilgan talablar qo'yiladi. Ushbu talablarga muvofiq bo'lmagan yoki talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etmagan yoki taqdim etgan ma'lumotlari Buyurtmach tomonidan qo'shimcha ravishda o'rganib chiqilganda haqiqiyli va ishonchliligi tasdiqlanmagan holda ushbu ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.

Shuningdek, ishtirokchi (yoki uning bank hisobvarag'i) imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni ta'minlamaydigan davlatlar va hududlarda (offshor zonalarda) ro'yxatdan o'tmagan bo'lishi, tan olingan maxsus nazorat qiluvchi organlarning sanksiyalar ro'yxatida bo'lmasligi, ishtirokchining yuridik manzili taqiqlangan hududlarga tegishli bo'lmasligi kerak.

2.2. Tanlash ishtirokchisi o'z taklifi bilan birga ushbu xarid hujjatlarining 1-ilovasi “Tanlash ishtirokchilari va takliflarni baholash mezonlari”da keltirilgan tanlash uchun hujjatlarni taqdim etadi.

2.3. Davogarlarni tanlashda ushbu bobda va davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga javob bermaydigan tashkilot va firmalar tanlashda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

2.4. Mazkur bobda ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etish uchun majburiydir. Agar ishtirokchi ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etmasa, xarid komissiyasi uni tanlashda ishtirok etishga ruxsat bermaslikka haqli.

2.5. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi:

a) maxsus axborot portalida joylashtirilgan xarid hujjatining elektron shaklini yuklab oladi va o'rganib chiqadi;

b) mazkur xarid hujjati talablari asosida o'z taklifini taqdim etadi;

v) etender.uzex.uz platformasida e'londa belgilangan 3% miqdorda zakalat ko'rinishida o'z taklifi ta'minotining kafolatini taqdim etadi. Ushbu zakalat summasi mazkur platforma shartlariga muvofiq ishtirokchiga qaytarilib beriladi.

2.6. Tanlash ishtirokchisi:

- taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyli va ishonchliligi uchun javobgardir;
- faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;
- elektron platforma qoidalari doirasida taqdim etilgan taklifni taqdim etish muddati tugagunga qadar qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.

– tanlash ishtirokchisi tomonidan ilovada ko‘rsatilgan kafolat xati (1-shakl), kontragent egaligi tuzilmasi (2-shakl), korrupsion holatlarga yo‘l qo‘yilmaslik haqidagi ariza (3-shakl), tanlash shartlariga o‘xshash ishlarni bajarish bo‘yicha ish tajribasi to‘g‘risida ma‘lumot (4-shakl), texnik taklif va qiyosiy jadvalning (5-shakl) lar tanlash hujjatlarida ko‘rsatilgan shaklda bo‘lishi shart, aks holda ishtirokchining ushbu mezon bo‘yicha taqdim etgan malaka hujjatlari inobatga olinmaydi.

– Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan malaka hujjatlari tanlash e‘lon qilingan sanadan keyin rasmiylashtirilgan yoki amal qilish muddati (soliq idoralari yoki boshqa vakolatli tashkilotlardan berilgan ma‘lumotlar) o‘tmagan bo‘lishi lozim.

– Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan qurilmalarni tanlovda e‘lon qilingan texnik topshiriq bilan solishtirish uchun, Buyurtmachi vakil(lar)iga qurilmalar namunasi bilan jisman tanishish imkoniyatini 3 ish kuni muddatda O‘zbekiston Respublikasi hududida ta‘minlab berishi zarur.

– Majburuy mezonlar bo‘yicha tanlash ishtirokchisi tomonidan talab qilingan ma‘lumotlar taqdim etilmaganda yoki qisman taqdim etilganda ma‘lumotlar inobatga olinmaydi va ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.

### **3-BOB. TAKLIFLARNI RASMIYLASHTIRISH, QABUL QILISH, BAHOLASH TARTIBI VA KO‘RIB CHIQISH MUDDATLARI**

3.1. Takliflar etender.uzex.uz maxsus axborot portalida elektron shaklda taqdim etiladi.

3.2. Taklif doirasida taqdim etilgan barcha hujjatlar davlat tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarida rasmiylashtirilishi mumkin. Boshqa tillarda taqdim etilgan takliflar o‘zbek yoki rus tillariga tarjima qilinishi lozim. Bu holda tarjima qilingan hujjat haqqoniy deb hisoblanadi. Boshqa tillarda taqdim etilgan hujjatlarlar inobatga olinmaydi va ishtirokchi tanlovdan chetlashtiriladi.

Barcha hujjatlar ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi va muhri bilan taqdim etilishi talab etiladi.

3.3. Taklifning amal qilish muddati takliflarni qabul qilinishi tugagan kundan boshlab kamida 20 ish kuni bo‘lishi kerak.

3.4. Takliflarni qabul qilish muddati va vaqti: takliflar etender.uzex.uz platformasida Tanlash elon qilingan kundan boshlab 5 ish kunida elektron ko‘rinishda taqdim etiladi.

3.5. Buyurtmachi Ishtirokchini xarid qilish tartib-qoidalarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

- ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo‘llanilishiga ta‘sir o‘tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to‘g‘risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

- ishtirokchi xarid qilish hujjatining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;

- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa;

- ishtirokchi taqdim etgan hujjatlardagi ma‘lumotlar haqqoniy emasligi aniqlanganda;

- u to‘g‘risida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd mavjud bo‘lsa.

3.6. Tanlash ishtirokchilari tanlash o‘tkazish tartibi bo‘yicha qarshi takliflar kiritishga haqli emas.

3.7. Agar tanlash g‘olibi shartnoma loyihasida offshor zonada yoki ta‘qiqlangan hududlarda joylashgan yuridik (pochta) manzili va (yoki) bank hisob raqamini ko‘rsatsa, Buyurtmachi tanlash g‘olibi bilan shartnoma tuzmaslikka haqli.

3.8. Xarid komissiyasi va Buyurtmachi tanlash ishtirokchilarining tanlashda qatnashish bilan bog‘liq xarajatlari uchun moddiy javobgar emaslar.

#### **4-BOB. HUJJATLARGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH**

4.1. Buyurtmachi tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugashidan bir ish kunidan kechiktirmay hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bu holda, ushbu tanlash bo'yicha takliflarni taqdim etish muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.

4.2. Xizmatlarning nomlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

4.3. Tanlash ishtirokchisi xarid hujjati qoidalariga oydinlik kiritish uchun takliflarni qabul qilish muddati tugagunga qadar ikki ish kunidan kechiktirmay buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali so'rov yuborish huquqiga ega. Ushbu so'rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida Buyurtmachi ochiq elektron chat orqali tushuntirishlar yuborishi shart. Xarid hujjati qoidalarining tushuntirishlari uning mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

#### **5-BOB. TANLASH O'TKAZILMAGAN DEB TOPILISHI HOLATLARI**

5.1. Quyidagi hollarda tanlash o'tkazilmagan deb topilishi mumkin:

a) agar tanlovda bitta ishtirokchi qatnashgan bo'lsa yoki hech kim qatnashmagan bo'lsa;

b) agar takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif hujjatlar talablariga javob bersa;

c) barcha taqdim etilgan takliflar kerakli hujjatlar to'plamini o'z ichiga olmagan bo'lsa.

Bunda davlat buyurtmachisi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

5.2. Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda tanlashni bekor qilish huquqiga ega. Bu holda Buyurtmachi tanlash bekor qilinganligi to'g'risida asoslangan sabablarini maxsus axborot portalida joylashtiradi.

#### **6-BOB. TAKLIFLARNI BAHOLASH TARTIBI VA MEZONLARI**

6.1. Takliflar 1-ilovada keltirilgan mezonlarga muvofiq hamda ishtirokchining taklifiga asosan bir bosqichda eng past narx usulida baholanadi. Xarid hujjati mezonlari talablarini bajargan eng arzon narx taklifini taqdim etgan ishtirokchi etender.uzex.uz platformasida avtomatik ravishda g'olib deb topiladi. Ishtirokchilar va takliflarni baholash tartibi va mezonlari 1-ilovada keltirilgan.

6.2. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni qabul qilish muddati tugagan sanadan boshlab 10 ish kundan oshmaydi.

6.3. Xarid komissiyasining qarori bilan g'olib aniqlanadi va tanlovning zaxira g'olibi aniqlanishi mumkin.

6.4. Xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni xarid hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi. Takliflar mezonlarga muvofiqligini chuqur o'rganish maqsadida xarid komissiyasi ekspert baholash guruhini tuzishga haqli.

6.5. Agar taklifni taqdim etgan ishtirokchi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob bermasa yoki ishtirokchining taklifi to'liq bo'lmasa yoki xarid hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi

6.6. Xarid hujjati va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlash ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

6.7. Bayonnoma rasmiylashtirilgan kuni 2 ish kuni mobaynida muhokama qilish uchun maxsus axborot portaliga joylashtiriladi. Agar ikki ish kuni ichida tanlash natijalari bo'yicha ishtirokchilardan e'tirozlar kelib tushmasa, Buyurtmachi va g'olib ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

6.8. Tanlash g'olibi xarid komissiyasining bayonnomasi tasdiqlanganidan keyin ushbu xarid hujjatining shartlariga muvofiq Buyurtmachi bilan shartnoma tuzadi. Tanlash g'olibi tomonidan shartnomani imzolash muddati xarid komissiyasi tomonidan g'olib e'lon qilingan kundan boshlab 10 ish kuni.

G'olib tomonidan shartnomani o'z vaqtida imzolamaslik shartnomani tuzishdan bosh tortish sifatida baholanishi mumkin.

6.9. G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, buyurtmachi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon (Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.

### 1-ilova

#### TANLASH ISHTIROKCHILARI VA TAKLIFLARNI BAHOLASH MEZONLARI

Xarid komissiyasi tanlashni amalga oshiradi. Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan talab qilingan ma'lumotlar taqdim etilmagan bo'lsa, u tanlashdan chetlashtiriladi.

#### **Baholash mezonlari (eng past narx usuli)**

№	Mezonlar	Baholash	Izoh
1.	Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat. Yakka tartibdagi tadbirkorlar shuningdek pasport/ID kartani ham taqdim etadi (Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat nusxasi).	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas )	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
2	Ishtirokchining kafolat xati (1-shakl).	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
3	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga benefitsar (ta'sischi) mulkiy egalarni ham hisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi: (2-shakl, hamda Ustav yoki ta'sis shartnomasi yoki boshqa ta'sis hujjatlari nusxasi) (YaTT lardan guvohnoma talab etiladi)	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud) / Yo'q (mavjud emas)	Agar yo'q (mavjud emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
4	Ishtirokchining korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi arizasi (3-shakl).	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas )	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.

5	Pos terminallar yetkazib bo'yicha ishtirokchining ish tajribasi to'g'risida ma'lumot. (ma'lumot xati 4-shakl va tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari: shartnoma yoki hisob faktura yoki qabul qilish topshirish dalolatnomalari nusxasi). Bunda taqdim etilgan talabga mos keluvchi tasdiqlovchi hujjatlarning kamida 1 (bir)tasini ochiq manbalardan tekshirish imkoni mavjud bo'lishi yoki QR-kod orqali tasdiqlangan bo'lishi talab etiladi.	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas )	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
6	So'ngi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti, Soliq organi tomonidan qabul qilingan QR-kodli ma'lumotnoma va Buxgalteriya balansi -1-shakl va Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot- 2-shakl) yoki so'ngi hisobot yili uchun auditorlik xulosasi(YaTT larga talab etilmaydi). (Norezidentlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar QR-kodli bo'lishi majrubiyy emas)	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud) / Yo'q (mavjud emas)	Agar yo'q (mavjud emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
7	Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (vakolatli organ tomonidan berilgan ma'lumotnoma). (Norezidentlar tomonidan davlat ro'yxatidan o'tgan mamlakatning qonunchiligida bunday hisobotlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, kafolat xati taqdim etiladi)	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas )	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
8	Ishtirokchining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjat yoki veb-saytining mavjudligi to'g'risida ma'lumot. (Hujjat nusxasi yoki veb-sayt havolasi).	<b><u>Afzalroq</u></b> Ha / Yo'q	Mazkur ma'lumot ishtirokchi tomonidan mavjud bo'lgan hollarda taqdim etiladi. Ushbu mezon bo'yicha ma'lumot taqdim etmagan ishtirokchi tanlashdan chetlashtirilmaydi.
9	Ishtirokchining bankrot emasligi (to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari joriy etilmaganligi) to'g'risidagi ma'lumotnoma. (Davlat xizmatlari markazi tomonidan berilgan ma'lumotnoma nusxasi yoki saytidan nusxa (screenshot)). (norezidentlar kafolat xatni taqdim etadi.)	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud ) / Yo'q (mavjud emas)	Agar Yo'q (mavjud emas) bo'lsa, ishtirokchi chetlashtiriladi.
10	Ishtirokchining texnik taklifi (texnik taklif va qiyosiy jadval 5-shakl)	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud ) / Yo'q (mavjud emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi
11	Ushbu Pos terminallarni yetkazib beruvchi ishlab chiqaruvchining rasmiy hamkori maqomiga ega bo'lishi shart (ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilgan hamkorlik sertifikatini yoki avtorizatsiya xati ilova qilinadi)	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud ) / Yo'q (mavjud emas)	Agar Yo'q (mavjud emas) bo'lsa, ishtirokchi chetlashtiriladi.
12	Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan qurilmalarni tanlovda e'lon qilingan texnik topshiriq bilan solishtirish uchun, Buyurtmachi vakil(lar)iga qurilmalar namunasi bilan jisman tanishish imkoniyatini 3 ish kuni muddatda O'zbekiston Respublikasi hududida ta'minlab berishi to'g'risida kafolat xati (erkin shaklda kafolat xati)	<b><u>Majburiy</u></b> Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.

13	Taklif qilingan terminallar uchun O'zbekiston Respublikasi hududida servis xizmati ko'rsatish markazlari yoki hamkorlari mavjudligi to'g'risida ma'lumot (Servis xizmat ko'rsatish markazi to'g'risidagi ma'lumot xati hamda xizmat ko'rsatish bo'yicha hamkorlik shartnoma nusxasi) va/yoki Ishtirokchida vakolatli servis markazi mavjud bo'lmagan taqdirda, u O'zbekiston Respublikasi hududida vakolatli servis markazi ochilishi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash to'g'risida kafolat xati taqdim etadi. (erkin shakldagi kafolat xati taqdim etadilar).	<p style="text-align: center;"><b><u>Majburiy</u></b></p> Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas )	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
----	---	---	---

*Majburuy mezonlar bo'yicha tanlash ishtirokchisi tomonidan talab qilingan qisman taqdim etilganda ma'lumotlar inobatga olinmaydi va ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.*

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ \_\_\_\_\_  
Sana: \_\_\_\_\_

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB  
Xarid komissiyasiga

KAFOLAT XAT

Ushbu xat bilan \_\_\_\_\_ (tashkilot nomi) quyidagilarni:

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida emasligini;
- Buyurtmachi bilan sud jarayoni holatida emasligini;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni noto'g'ri bajarish holatlari yo'qligini;
- soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar mavjud emasligini;
- shartnomani ijro etish uchun zarur bo'lgan texnik, moliyaviy, moddiy, kadr va mexnat hamda boshqa resurslariga egaligini;
- korrupsion ko'rinishlariga yo'l qo'yilmasligini;
- taqdim etilayotgan ma'lumot va hujjatlarni xaqqoniy va ishonchligini tasdiqlaymiz va kafolat beramiz.

***Vakolatli shaxsning***

***F.I.Sh.*** \_\_\_\_\_

M.O'.

## ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB  
Xarid komissiyasiga

Yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risida \_\_\_\_\_

(haridlar ishtirokchisi) \*

## MA'LUMOTNOMA

№	F.I.Sh.	Tug‘ilgan sanasi	Shaxsning roli (rahbar / ta‘sischi / yakuniy benefitsiar)	Shaxs rahbar/ ta‘sischi/ yakuniy benefitsiar bo‘lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 5 foizdan ortiq ulushga ega ta‘sischilar uchun), foizda
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
...					

*\*so‘nggi ikki yil uchun to‘ldiriladi*

*Vakolatli shaxsning*

*F.I.Sh.* \_\_\_\_\_

*Harid ishtirokchisidagi vakolatli shaxsning lavozimi* \_\_\_\_\_

*Ma'lumotnoma tuzilgan*

*sana* \_\_\_\_\_

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ \_\_\_\_\_  
Sana: \_\_\_\_\_

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB  
Xarid komissiyasiga

Korrupsion holatlarga yo‘l qo‘yilmaslik haqidagi  
ARIZA

Ushbu xat orqali bizning \_\_\_\_\_ tashkilotimiz  
(Tashkilot nomi)

a) Quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- 2021 yil 22 aprel “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-qonun talablariga rioya etilishiga;
- amaldagi mansabdor shaxsga, buyurtmachining yoki boshqa davlat xodimi vakiliga turli xil ko‘rinishdagi mukofotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki boshqa bir yo‘l orqali taklif etilishiga yo‘l qo‘yilmaslikni, Buyurtmachi tomonidan qaror qabul qilishiga ta’sir etish maqsadida ishga qabul qilish taklifini yoki qimmatbaho buyum, sovg‘a yoki xizmatlarni taklif etish hamda biron bir boshqa nojo‘ya harakatlarni amalga oshirish orqali davlat xaridlari jarayoniga aralashmaslikka;
- raqobatchilarga qarshi harakatlarni, shu jumladan affillanganlik holatlari aniqlangan holatlarida ham amalga oshirmaslikka;
- tovlamachilik, korrupsiya va hujjatlarni soxtalashtirish holatlariga yo‘l qo‘ymaslikka;
- yolg‘on yoki soxta hujjatlarni taqdim etilmaslikni, ushbu lotda ishtirok etayotgan ishtirokchilarning affillangan shaxslari to‘g‘risidagi malumotlarni oshkor etmaslikni;

b) Shuningdek,

- Buyurtmachi bilan manfaatlar to‘qnashuvida emasligini, ta’sischilar va/yoki ijrochini aniqlanish bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan xodimlar orasida yaqin qarindoshlar yo‘qligini;
- Tanlash natijalariga yoki narxlarning o‘zgarishiga ta’sir etish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan o‘zora til biriktirilmaganligini tasdiqlaymiz.

***Vakolatli shaxsning***

***F.I.Sh.*** \_\_\_\_\_

M.O‘.

## ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ \_\_\_\_\_

Sana: \_\_\_\_\_

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB  
Xarid komissiyasiga

Pos terminallar yetkazib bo‘yicha tajribasi to‘g‘risida ma’lumot

№	Tovar (ish, xizmat) nomi	Sotib oluvchi to‘g‘risida ma’lumot	Yetkazib berish sanasi	Izoh

---

(vakolatli shaxsning imzosi)

---

(vakolatli shaxsning F.I.Sh. va mansabi)

**Vakolatli shaxsning**

**F.I.Sh.** \_\_\_\_\_

M.O‘.

## ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ \_\_\_\_\_  
Sana: \_\_\_\_\_

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB  
Xarid komissiyasiga

**Taklif etiladigan mahsulot uchun  
texnik tavsiflarining qiyosiy jadvali**

T.r.	Parametr nomi	Texnik topshiriq talabiga muvofiq ko'rsatgich	Ishtirokchi taklifiga muvofiq ko'rsatgich	Izoh (muvofiq/ muvofiq emas)
	<i>Tanlash _____ (yetkazib beriladigan tovar nomi, ishlab chiqaruvchi nomi)</i>			
1	Operatsion tizimi	Android 12		
2	Markaziy protsessor	Cortex Quad-core A seriyali protsessor		
3	Xotira	16 GB + 2 GB DDR3 RAM microSD qo'llab-quvvatlashi: xotira kartasi sloti 128 GB gacha kengaytiriladi		
4	Displey	Sensorli 6.3" IPS, HD displey , 1440×720 pixel		
5	Kontaktsiz kartani o'quvchi	Mavjud		
6	SAM uyasi/SIM uyasi	Mavjud		
7	Aloqa	RS232   2G / 3G / 4G   Wi-Fi® (2.4 GGs/5 GGs) + Bluetooth® (4.2/5.0)		
8	Qo'shimcha qurilma	2D imij skaner QR-kodlar va shtrix-kodlarni tez hamda aniq qayta ishlashni ta'minlovchi modulga ega		
9	Periferik qurilmalar uchun portlar	1 Type C (USB 2.0) OTG   2 PIN POGO PIN   Garnitura qo'llab-quvvatlashi		
10	Ishlash harorati oralig'i	0C ~ 45°C (32°F ~ 113°F) "Ishlash harorati." -20°C ~ 70°C (-4°F ~ 158°F) Saqlash		

		harorati.” 5% ~ 95% Nisbiy namlik, kondensatsiyasiz		
11	Quvvat adapter	100 - 240V AC, 50Hz/60Hz, 5.0V DC, 2.0A		
12	To'liq to'plam	5V/2A adapter (USB Type-C kabeli bilan) Bluetooth/Wi-Fi qo'llab-quvvatlovchi kommunikatsiya bazasi,Ulagichlarga ega zaryadlash bazasi		
13	Kameralar	Old kamera – 5 MP		
14	QR skaneri	Mavjud		
15	Sertifikatlar	PCI PTS 6.x SRED   EMV L1 & L2   EMV Contactless L1   Visa payWave   MasterCard Contactless   UPI qUICS   Amex ExpressPay   Discover D-PAS   JCB va boshqalar		
16	Batareya hajmi	3350mAh   7.2V (equivalent to 6600mAh/3.6V)		
17	Termal printer	80mm/sec   Paper roll outer diameter: 40mm		
18	Qushimcha afzalliklari	AGPS   GPS   GLONASS   BEIDOU		

***Vakolatli shaxsning***

***F.I.Sh.*** \_\_\_\_\_

M.O'.

kelishuvchilar: J.Alimov, F.Mustafoyev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=oK35kR27&id=80cacf18-b9c1-461c-9752-a6762cab788e>

